



**TURKIYADA MILLIY OZCHILIKLAR MUAMMOSI: YEVROPA
ITTIFOQI BILAN INTEGRATSIYA DOIRASIDA BAHOLAR**

Chorshamova Gullola Azimboy qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Tarix yo‘nalishi 1-kurs magistrant

Annotation. Mazkur maqolada ozchilik tushunchasi va uning xalqaro huquqiy doiradagi tartibga solinishi, uning Turkiya Respublikasiga ta’siri tahlil etilgan. Shuningdek, ozchilik masalasi so‘nggi asrlarda xalqaro siyosat va huquqning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning huquqiy, tarixiy, siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jihatlari keng o‘rganilgan. Ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Usmonli imperiyasidagi milliy va diniy guruhlarning mavqeい, “Millat tizimi” hamda millatchilik harakatlari bilan bog‘liq jarayonlar muhim ahamiyat kasb etgan. Maqolada ozchilik tushunchasining sotsiologik va huquqiy yondashuvlari, Turkiyadagi amaldagi qonunchilik hamda xalqaro me’yorlarga muvofiqligi o‘rganilib, mavjud tendensiyalar tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: siyosat, jamiyat, taraqqiyot, madaniyat, mafkura, xalqaro huquq, xalqaro shartnoma, din, an’ana, birdamlik.

**ПРОБЛЕМА МЕНЬШИНСТВ В ТУРЦИИ: ОЦЕНКА В КОНТЕКСТЕ
ИНТЕГРАЦИИ С ЕВРОПЕЙСКИМ СОЮЗОМ**

Аннотация: В данной статье анализируются понятие меньшинств и его регулирование в международном правовом пространстве, а также его влияние на Турецкую Республику. Кроме того, рассматривается вопрос о меньшинствах как одном из ключевых направлений международной политики и права в последние века, включая его правовые, исторические, политические, социальные и экономические аспекты. Особое внимание



уделяется положению национальных и религиозных групп в Османской империи в конце XIX – начале XX века, системе «миллет» и процессам, связанным с националистическими движениями. В статье исследуются социологические и правовые подходы к понятию меньшинств, действующее законодательство Турции и его соответствие международным нормам, а также анализируются существующие тенденции.

Ключевые слова: политика, общество, развитие, культура, идеология, международное право, международный договор, религия, традиция, солидарность.

THE ISSUE OF MINORITIES IN TURKEY: ASSESSMENTS WITHIN THE FRAMEWORK OF INTEGRATION WITH THE EUROPEAN UNION

Annotation: This article analyzes the concept of minorities and its regulation within the framework of international law, as well as its impact on the Republic of Turkey. Additionally, the issue of minorities has been one of the key aspects of international politics and law in recent centuries, with its legal, historical, political, social, and economic dimensions being extensively studied. In particular, the position of national and religious groups in the late 19th and early 20th centuries within the Ottoman Empire, the “Millet System”, and nationalist movements have played a significant role. The article examines both sociological and legal approaches to the concept of minorities, the current legislation in Turkey, and its compliance with international norms, while also analyzing existing trends.

Keywords: politics, society, development, culture, ideology, international law, international treaty, religion, tradition, solidarity.



KIRISH

Ozchilik tushunchasi va ozchiliklar muammosi, ayniqsa, so‘nggi asr davomida jahon siyosati va shu bilan birga xalqaro huquqning dolzarb mavzularidan biri bo‘lib kelgan. Shubhasiz, ozchiliklar masalasining huquqiy tizimga ta’siridan tashqari juda muhim tarixiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va mafkuraviy jihatlari mavjud [1]. Boshqa tomondan, nazariy jihatdan kelishilgan yagona ozchilik tushunchasi mavjud emas. Shu sababli, xalqaro huquqda hamma tomonidan qabul qilingan ozchilik ta’rifi va unga asoslangan huquqlar haqida gapirish qiyin.

Ozchiliklar masalasi so‘nggi ikki asr davomida turk tarixiga katta ta’sir ko‘rsatgan mavzulardan biridir. Bugungi kunda ba’zi shaxslar tomonidan Turkiya mozaik jamiyat ekanligi va u 47 xil etnik guruhdan iborat ekani haqida da’volar ilgari surilayotgan bir paytda, ozchiliklar masalasi Turkiya Respublikasining Yevropa Ittifoqiga to‘liq a’zo bo‘lish bo‘yicha muzokaralar boshlanishi bilan kun tartibining eng muhim mavzusiga aylanishi ehtimoli yuqori. Shu sababli, xalqaro shartnomalarda ozchilik va ozchilik huquqlari qanday tartibga solingani hamda bu tushuncha Turkiya Respublikasi uchun qanday ahamiyat kasb etishini bilish muhimdir.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda ozchilik tushunchasi va ozchiliklar masalasining huquqiy, tarixiy va siyosiy jihatlarini o‘rganish maqsad qilingan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida huquqiy tahlil, tarixiy-huquqiy yondashuv va taqqoslash usullari qo‘llanildi. Birinchidan, huquqiy tahlil usuli asosida xalqaro huquqda ozchilik tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi o‘rganildi. Ushbu tahlil davomida Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlarning ozchilik huquqlariga oid normativ hujjatlari tahlil qilindi. Ikkinchidan, tarixiy-huquqiy yondashuv asosida Usmonli imperiyasi va Turkiya Respublikasida ozchiliklarga nisbatan yuritilgan siyosat, shuningdek, bu boradagi



asosiy xalqaro shartnomalar, xususan, Lozan shartnomasi kabi hujjatlar o‘rganildi. Bu yondashuv ozchilik huquqlarining rivojlanish dinamikasini tushunish imkonini beradi.

Tadqiqot doirasida ozchilik tushunchasi va huquqlarining turli talqinlari o‘rganilib, Turkiya Respublikasining Yevropa Ittifoqiga a’zolik jarayonidagi asosiy muammolar va xalqaro huquqiy majburiyatlar aniqlab berildi. Natijalarning aniqligi va ishonchlilagini ta’minalash uchun xalqaro huquqiy hujjatlar, tarixiy manbalar hamda ilmiy adabiyotlar keng tahlil qilindi. Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi orqali ozchilik tushunchasining nazariy va amaliy jihatlari kompleks ravishda o‘rganilib, Turkiya Respublikasining ozchiliklarga oid siyosati xalqaro huquq doirasida baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yangi davrning boshida Usmonli davlati 4 million km² maydonga va 25 million aholiga ega bo‘lgan imperiya holiga kelgan. Hudud jihatidan dunyoning eng yirik imperiyasi bo‘lgan Usmonli davlati o‘z tarkibiga Anadolu, Trakiya, Bolgariya, Serbiya, Ruminiya (Eflak-Bo‘g‘don), Albaniya, Chernogoriya, Gretsiya, Kavkaz, Iroq, Suriya, Falastin, Hijoz, Misr, Tripoli (Trablusgarp), Tunis, Jazoir hamda O‘rta yer dengizining sharqiy qismida joylashgan Krit va Kipr orollarini, shuningdek, deyarli butun Egey dengizi orollarini qamrab olgan. Imperiyani turklar kengaytirib, uni himoya qilganlar. Turklarning boshqaruvini qabul qilgan yunonlar, lotinlar, slavyanlar, cherkaslar, gruzinlar va armanlar, shuningdek, semit xalqlaridan bo‘lgan arab va yahudiylar imperiyada yashagan. Shunday qilib, Usmonli imperiyasida diniy va madaniy birlik ta’milanmagan. Ushbu millatlar “Millat tizimi” deb nomlangan tizimga bo‘ysundirilgan. XIX asrda Fransuz inqilobining ta’siri bilan diniy ozchiliklar masalasi o‘z ahamiyatini yo‘qotgan bo‘lsa, milliy ozchiliklar muammosi esa muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Asosan Yevropaga ta’sir qilgan millatchilik harakatlari Usmonli jamiyatida ham aks sado bera boshladi va diniy hamda mazhabiy jihatdan bir-



biridan farq qiladigan Usmonli jamiyatlari etnik va madaniy farqlarga urg‘u berib, diniy huquqlar o‘rniga siyosiy huquqlar talab qila boshladilar.

Ozchilik tushunchasining aniq ta’rifi berilmagan bo‘lsa-da, bu tushuncha vaqt o‘tishi bilan yangi xususiyatlar qo‘shilishi natijasida tez kengayib, bugungi holatini olgan. Ozchilik deb ataladigan guruhlarning subyektiv pozitsiyalari va turli yondashuvlari mazkur tushunchani yanada bahsli holga keltirgan. Bugungi kunda ozchilik tushunchasi xalqaro munosabatlar va siyosatshunoslik sohasida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Zamonaviy jamiyat tuzilishi va munosabatlari doirasida ozchilik tushunchasi yanada murakkablashmoqda. Jamiyat tuzilishini tahlil qilishda qo‘llaniladigan turli modellarning mavjudligi hamda tadqiqot birliklarining farqlanishi ozchilik masalalari bo‘yicha bahslarni yanada kuchaytirib yubormoqda.

“Ozchilik” tushunchasi xalqaro munosabatlarda so‘nggi 150 yil davomida doimiy ravishda qo‘llanilib kelayotgan tushuncha hisoblanadi. Ushbu tushuncha Birinchi Jahon urushi yakunida Polsha bilan tuzilgan shartnoma matniga kiritilib, undan keyingi barcha xalqaro shartnomalarga ham qo‘silgan. Ushbu asrda milliy davlat jarayonini boshdan kechirayotgan dunyo uchun har doim muammo bo‘lib kelgan ozchiliklar masalasi, Turkiya Respublikasi uchun ham tashkil topgan davridan boshlab bugungi kungacha mavjudligi va munozaralarini saqlab qolgan. Turkiya Respublikasi 1959-yilda bergen arizasi bilan boshlagan Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lish jarayonining eng muhim bosqichiga kirdi. 2004-yil 17-dekabrda Yevropa Ittifoqi Turkiya bilan to‘liq a’zolik bo‘yicha muzokaralarni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qildi va ushbu muzokaralar uchun qonunchilik hamda umumiy tuzilmani ko‘rib chiqish jarayoni 2005-yil 3-oktabrda boshlandi. Turkiya Respublikasining Yevropa Ittifoqi bilan integratsiya jarayonining kelajagi haqida ham optimistik, ham pessimistik ko‘plab fikrlar bildirilayotgan bo‘lsa-da, bundan 47 yil avval boshlangan ushbu jarayonning asosiy kuzatuvchisi, ayniqla so‘nggi 15 yil ichida, Turkiyaning o‘zidir [2].



Ozchiliklar masalasi Yevropa Ittifoqi tomonidan katta ahamiyat bilan o‘rganiladigan, ayniqsa, Turkiyani tanqid qilish va turli shartlar qo‘yish uchun asos sifatida ishlataliladigan mavzulardan biridir. Yevropa Ittifoqi o‘zining tayyorlaydigan taraqqiyot hisobotlarida inson huquqlari va ozchiliklar huquqlari bo‘yicha alohida bo‘lim ajratib, Turkiyada mavjud bo‘lgan ozchilik tushunchasidan ancha kengroq baholash olib boradi. Taraqqiyot hisobotlarida, ayniqsa, Lozan shartnomasida ta’riflangan va huquqiy maqomi belgilangan ozchiliklardan tashqari ba’zi jamoalarga ishora qilingan, ayrim joylarda yashirin, ba’zi joylarda esa ochiqchasiga Turkiyada “yangi ozchiliklar” mavjudligi ta’kidlangan. Lozan shartnomasi bilan tan olingan ozchiliklar yunonlar, armanlar va yahudiylardir. Bu jamoalar ijtimoiy va madaniy jihatdan barcha ozchilik huquqlariga ega bo‘lib, hatto ular Turkiyaning farovonlik va boylik ichida yashovchi qatlamlari orasida o‘rin olgan.

Kelib chiqishi lotin tilidagi “minor” so‘ziga borib taqaluvchi, “kichik” yoki “oz” ma’nosini anglatuvchi ozchilik tushunchasi keng (sotsiologik) va tor (huquqiy) ma’noda ikki xil yondashuv bilan ko‘rib chiqilishi mumkin [3]. Keng (sotsiologik) ma’noda ozchilik – bir jamiyatda son jihatidan kam bo‘lgan, hukmron (dominant) bo‘lman va ko‘pchilikdan farqli xususiyatlarga ega bo‘lgan guruh sifatida tushuniladi. Ushbu ta’rifga ko‘ra, agar shaxs siyosiy, ijtimoiy, fuqarolik, madaniy, iqtisodiy huquqlar va shu kabi sohalarda o‘zini ko‘pchilik oldida noqulay yoki cheklangan deb hisoblasa va shu sababli o‘zini muayyan guruhga mansub deb hisoblasa, bu guruh sotsiologik nuqtayi nazardan “ozchilik” sifatida tavsiflanishi mumkin [4]. Biroq, keng (sotsiologik) jihatdan shunday tushunilgan ozchilikning barcha davlatlar tomonidan qabul qilingan huquqiy ta’rifi hozirgacha mavjud emas.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari komissiyasiga qarashli Kamsitishni oldini olish va ozchiliklarni himoya qilish quyi komissiyasi tomonidan 1949-yilda qabul qilingan ozchilik ta’rifi hanuzgacha BMTning rasmiy ozchilik ta’rifi hisoblanadi. Unga ko‘ra: “Jamiyat ichida doimiy etnik, til va diniy



an’analarga yoki boshqa muhim xususiyatlarga ega bo‘lgan, shu xususiyatlari bilan jamiyatning boshqa qatlamlaridan aniq farqlanadigan va bu xususiyatlarini saqlab qolishni istaydigan, hukmron mavqega ega bo‘lmagan guruhlar” ozchilik deb hisoblanadi [5]. Biroq, e’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihat shundaki, ko‘plab zamonaviy qarashlardan farqli o‘laroq, ushbu ta’rifda “fuqaro bo‘lish” mezoni mavjud emas.

Ozchilik tushunchasini huquqiy jihatdan tavsiflashda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari komissiyasining Kamsitishni oldini olish va ozchiliklarni himoya qilish quyi komissiyasi ma’ruzachisi Francesco Capotorti tomonidan 1978-yilda taklif qilingan ta’rif asosiy asosni tashkil etgan [6]. Ushbu ta’rifga ko‘ra, “ozchilik” – “Hukmron mavqega ega bo‘lmagan, davlat aholisining qolgan qismiga nisbatan son jihatidan kam bo‘lgan, ushbu davlat fuqarolari hisoblangan, etnik, diniy va til xususiyatlari bo‘yicha umumiy aholining qolgan qismidan farq qiluvchi hamda ochiq ko‘rinmasa ham, o‘z madaniyati, an’analari va tilini saqlab qolishga intiluvchi birdamlik hissiga ega bo‘lgan guruh” deb ta’riflanadi [7].

XULOSA

Ozchilik tushunchasi tarixiy, siyosiy va huquqiy jihatdan murakkab va bahsli masala bo‘lib, uning aniq va universal ta’rifi hozirgacha shakllanmagan. Xalqaro huquqda ozchiliklarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha turli shartnomalar va tamoyillar mavjud bo‘lsa-da, ularning talqini va qo‘llanilishi davlatlar o‘rtasida farqlanadi. Turkiya Respublikasi misolida esa ozchilik masalasi davlatning ichki siyosati, Yevropa Ittifoqiga integratsiya jarayoni hamda xalqaro huquq doirasidagi majburiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Tarixan Usmonli davlati doirasida diniy asosda shakllangan millat tizimi keyinchalik millatchilik harakatlari ta’sirida milliy ozchiliklar muammosiga yo‘l ochgan. Bugungi kunga kelib, Turkiyada ozchilik tushunchasi asosan Lozan shartnomasi asosida belgilansa-da, Yevropa



Ittifoqi va xalqaro tashkilotlar tomonidan bu tushuncha kengroq talqin qilinmoqda. Shunday ekan, global maydonda Turkiyaning ozchiliklar bo‘yicha yondashuvi xalqaro bosim va ichki siyosiy jarayonlar o‘rtasida muvozanat izlashni talab etadi.

Umuman olganda, ozchilik huquqlari va ularni tartibga solish masalasi faqat huquqiy yo‘nalish bilan cheklanmay, balki ijtimoiy va siyosiy jihatlardan ham tahlil qilinishi lozim. Davlatlarning ozchiliklarga bo‘lgan munosabati nafaqat ichki barqarorlik, balki xalqaro maydondagi nufuziga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, har bir davlat milliy manfaatlar va xalqaro standartlar o‘rtasida muvozanatli siyosat yuritishi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Gökçen Alpkaya, “Uluslararası İnsan Hakları Hukuku Bağlamında Azınlıklara İlişkin Bazı Gelişmeler”, TODAİE İnsan Hakları Yıllığı Cilt 14, 1992, s.145.
2. Sadık Mete KILIÇ. TARİHSEL GELİŞİMİ İÇİNDE TÜRKİYE'DE AZINLIKLAR VE AVRUPA BİRLİĞİ'NİN AZINLIKLAR KONUSUNA YAKLAŞIMININ TÜRKİYE'YE ETKİLERİ. - DİYARBAKIR, 2007.
3. Baskın ORAN, Türkiye'de Azınlıklar-Kavramlar, Teori, Lozan, İç Mevzuat, İctihat, Uygulama, İstanbul: İletişim Yayınları, 2005, s. 25-26.
4. Ayhan KAYA: “İnsan Haklarında Gri Alanlar”, Cemaatler ve Cemaatlerin Hukuki Sorunları, TESEV, Demokratik Değişim Gönüllüleri ve İsveç Başkonsolosluğu, 10 Aralık 2004 // http://www.tesev.org.tr/etkinlik/cemaat_ayhan_kaya_değerlendirme.php
5. Ayşe Füsün ARSAVA, Azınlık Kavramı ve Azınlık Haklarının Uluslararası Belgeler ve Özellikle Kişisel ve Siyasi Haklar Sözleşmesi’nin 27. Maddesi Işığında İncelenmesi, Ankara: Ankara Üniversitesi Siyasal Bilgiler Fakültesi, 1993, s. 42-43.
6. Naz ÇAVUŞOGLU, Uluslararası İnsan Hakları Hukukunda Azınlık Hakları, İstanbul: Su Yayınları, 2001, s. 33.
7. Baskın ORAN, Küreselleşme ve Azınlıklar, Ankara: İmaj Yaynevi, 2001, s. 67’den naklen.